

ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 3 (iyun, 2018)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro, 2018

A.Ahmedov, A.Sattorov. Astronomiya kursini o`qitish uslubiyotini takomillashtirish omillari.....	168
X.Hasanova. Barkamol avlodni tarbiyalashda hozirgi zamon o`qituvchisining o`rni.....	171
<b>TIL VA ADABIYOT, XORIJIY TILLAR</b>	
Sh. Hayitov, X.Barotova. "Boburnoma"da tarixiy, ilmiy va badiiy talqin uyg'unligi.....	174
Z.Ahmadova. Odam alayhissalom tarixi.....	180
A.Rahmonov. Nutk madaniyatini takomillashtirish – dolzarb uslubiy muammo sifatida.....	183
Z.Kodirova, N. Rahimova. Чет тилларини ўқитишда мулоқот маданиятини ривожлантириш.....	186
H.Avezova. Инглиз тили дарсларида таълим методларидан фойдаланиш самарадорлиги.....	189
M.Kahharova. Appreciated good manners in foreign and in our country.....	194
M.Niyazova. The characteristic features of some methods in teaching English.....	198
A.Sharipova. Technology of development critical thinking through reading and writing. What is "technology of teaching"?	202
D.Ahmedova. Akademik litseylarning tabiiy fanlar ta'lim yo'nalishlarida «Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchilarning uslubiy xususiyatlari» mavzusini o'tish tajribasi.....	207
<b>MUSIQIY TA'LIM VA SAN'AT</b>	
H.Moyanov. Ёш авлод маънавий-маърифий тафаккурини шакллантиришда мусика санъатининг ўрни (Коракалпок халк мусикаси асосида).....	213
T.Utebaev, A.Erezenov. Место музыкальных инструментов в развитии народной культуры каракалпаков.....	216
A.Rajabov. Sharq mutafakkirlarining cholg'u sozlari rivoji va takomillashuviga qo'shgan hissalar.....	219
S. D'ustov, B.Madrimov. Мусика маданияти дарсини ўтишда қўлланиладиган айрим методлар.....	223
O.Karimov. Бошланғич синф ўқувчиларининг мусикий билиш имкониятлари.....	227
J.Yarashev. Musiqiy ta'limda aksiologik yondashuv.....	230
A.Musinoва. Мис кандакорлиги санъатини ўргатиш оркали ўқувчи-ёшларни ахлокий-эстетик тарбиялаш.....	233
<b>IQTISODIY TA'LIM VA TURIZM</b>	
H.Mahmudov, M.B'utaboev. Бизнес жараёнларида молиявий менежмент.....	237
M.Zaripova, M.K'uldoshov, S. Rahimova. Касб-хунар коллежи ўқувчи-ёшларида иқтисодий билим ва кўникмаларни ривожлантириш омиллари.....	243
<b>INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI</b>	
D.Fayziyeva. Kompyuter grafikasi fani bo'yicha dars jarayonini tashkil etishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	248
Sh.Rustamov. Применение статистического пакета анализа данных SPSS Statistics в психологических исследованиях на примере факторного анализа.....	252
N.Sayidova, M.Xoliqova. "Tumblr" ijtimoiy tarmog'i va undan foydalanish tartibi.....	256
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>	
M.Ibragimov. Футболчилар жароҳатининг олдини олиш ва профилактикаси.....	267
S.Akramov. Футболчининг психологик тайёргарлиги.....	271
M.Ahmedov. Болалар ва ўсмирлар спортининг илмий-методик асослари.....	275
A.Ibragimov, Sh.Qurbonov. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari.....	278
O.Farmonov, F.Salimov. Кичик мактаб ёшидаги болалар жисмоний тарбиясининг педагогик ва психологик асослари.....	281
Z.Yadgarova, Y.Fayziyev. Islom, sport va salomatlik.....	284
Z.Yusupova. Она ва бола соғлигини мукаммаллаштиришда айланма ҳаракат машқларининг ўрни.....	286
A.Inoyatov. Саломатлик жамғармасининг аҳамияти ҳамда физиологик кексайиш билан боғлиқ ижтимоий муаммолар.....	290
R.Shukurov. Turon yakkakurashi bilan shug'ullanuvchi talaba qizlarni musobaqa oldi psixologik tayyorlashning afzalliklari.....	294
Q.Arslonov. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari.....	297
A.Afraimov. Спорт гимнастикаси билан шугулланишнинг организмга таъсири.....	301
Sh.Kadyrov. Этапы формирования мотивации на достижения в спорте.....	306
<b>TADBIRLAR</b>	
M.Ibragimov. «Талаба спорт ҳафталиги» мусобакаси иқтидорли талабаларни каф этишининг муҳим омилли сифатида.....	310
<b>QUTLOV</b>	
V.V. Kozlov. Великий ученый и светлый человек. Профессору В.Ф. Петренко 70 лет.....	312



Jo'rabek YARASHEV  
Buxoro davlat universiteti  
musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

## MUSIQIY TA'LIMDA AKSIOLOGIK YONDASHUV

*Maqolada Buxoro musiqasini o'rganishda aksiologik yondashuv va Buxoro musiqa merosiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ustoz-shogird san'atkorlarning hayoti va ijodi, ularning kuy-qo'shiqlari orqali yosh avlodni estetik, ma'naviy-ma'rifiy qadriyat va milliy ruhda tarbiyalash aks ettirilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** musiqiy ta'lim, aksiologik yondashuv, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, Buxoro musiqa maktabi.

*В статье отображается аксиологический подход изучения музыки в Бухаре, а также жизнь и творчество мастеров, их достойный вклад в музыкальное наследие Бухары. Посредством песни мастеров молодое поколение воспитывается в эстетическом и национальном духе.*

**Опорные понятия:** музыкальное образование, аксиологический подход, ценности, национальные ценности, общечеловеческие ценности, Бухарская школа музыки.

*In article axiological approach to studying of music in Bukhara and also life and creativity of masters, their worthy contribution to musical heritage of Bukhara, by means of songs of masters is displayed, the younger generation are brought up in esthetic and national spirit.*

**Supporting concepts:** music education, axiological approach, values, national values, universal values, Bukhara school of music.

Musiqiy ta'lim tizimida aksiologik yondashuv o'ziga xos muammo bo'lib, uni amalga oshirish va leksik tarjimasini hamda musiqiy ta'lim tizimiga tadbiq qilishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslarini tahlil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

“Aksiologiya” – yunoncha “axio” – “qadriyat”, “logos” – “fan, ta'limot” so'zlaridan olingan bo'lib, u “qadriyatshunoslik, qadriyatlar” haqidagi fandir. “Aksiologiya”ni qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan-to'g'ri qadriyatshunoslik deb atash mumkin.

Taniqli qadriyatshunos (aksiolog) olim Q. Nazarov tomonidan chop etilgan “Pedagogika fanidan izohli lug'at”da qadriyatlar atamasiga shunday ta'rif beriladi. “Qadriyat – tevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko'rsatuvchi tushuncha bo'lib, axloqiy tamoyillar, g'oyalari, yo'l-yo'riqlar va maqsadlarda ifodalangan ana shu tushunchaga baho berish mezoni va usullari hisoblanadi”.

Qadriyat – bu qadr-qimmat ma'nosini anglatib, unson uchun qadrlil bo'lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuasidir.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy-madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.


Qadriyatlar faqat o'tmish uchun qadrlil bo'lmasdan, balki hozirda ham, kelajak taraqqiyotida ham qadrlil bo'lib, ular jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir qiladi hamda kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy merosimizdir.

Aksiologik tushunchalar o'zida xalqimizga xos eng nodir, eng noyob fazilatlarini mujassamlashtirgan. (1-rasm). Bu tushunchalar insonlarni doimiy tarzda ezgu ishlarga da'vat etib kelgan hamda ularning orzu-umidlariga erishishlarida muhim omil bo'lgan.

Qadriyatlar shaklan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi:


1. **Milliy qadriyatlar.** U yoki bu millatning asrlar davomida yaratgan qadriyatlari bo'lib, unda millatga xos belgilar, fazilatlar, tuyg'ular, yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat vakillari uchun umumiy hisoblanadi. Milliy qadriyatlar jamiyatning rivojlanishi jarayonida o'zidagi va o'ziga millatlardagi eng yaxshi belgilarni uyg'unlashtirib, umumiy insoniy qadriyatlar bilan bir butunlikni tashkil etadi. Ayni paytda milliy qadriyatlar dunyodagi xalqlar qatorida mazkur millatning mavjudligini, o'ziga xosligini namoyon etadiki, bundan har bir millat kishisida o'ziga xos faxr

tuyg'usi vujudga keladi. Har bir millat o'z qadriyatlarini yillar, asrlar davomida yangi-yangi qirralar bilan boyitib boradi. Millat bor ekan, millat qadriyatlari ham mavjud bo'ladi, u rivojlanib, boyib umuminsoniy qadriyatlar tarkibiga qo'shilib, uning boyishida o'z o'rniga ega bo'lib boraveradi.



1-rasm. Aksiologik tushunchalar.

2. Qadriyatlarning muhim shakllaridan yana biri – **umuminsoniy qadriyatlar** bo'lib, u dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan barcha axloqiy me'yorlarga amal qilishni talab etadi. Masalan: ota-onaning qadriga yetish, qarindosh-urug'chilikka amal qilish, inson zotiga yaxshilik qilish, bolalarga mehribonlik, keksalarga hurmat ko'rsatish, yomonlikni qoralash, hayotda adolatli bo'lish, birovlarining mulkiga xiyonat qilmaslik, tinchlikni asrash, ekologik muammolarni hal etishda mehr ko'rsatish, o'simliklarni payhon qilmaslik, suvni tejash va ifloslantirmaslik kabi axloqiy xislatlar umuminsoniyqadriyatlar hisoblanadi. Shunga ko'ra, qadriyatlar shajarasini rasmda quyidagicha ifodalayman (2-rasm).



2-rasm. Qadriyatlar shajarasi.

Yuqoridagi bayon etilganlardan kelib chiqqan holda Buxoro musiqa namoyandalari merosiga, qadriyatlariga aksiologik yondashuvga quyidagicha ta'rif berish va yo'nalishlarni tavsiflash mumkin.

Musiqa merosiga aksiologik yondashuv ajdodlarimiz, hozirgi kundagi xalqimiz va kelajak avlodlarimizning madaniy taraqqiyoti uchun qadri bo'lgan, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlar majmuasiga bo'lgan ijobiy munosabat hisoblanadi. Bu qadriyatlar, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlar bo'lib, u xalqimizning, xususan, allomalarimizning siyosiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy, badiiy-diniy, huquqiy ham-da estetik qarashlarini o'zida ifoda etadi.

Musiqa ta'limi jarayonida aksiologik yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra voqelikni atroflicha o'rganish hamda chuqur idrok etishda muhim o'rin tutadi.

Musiqa ta'limi samaradorligini oshirishda bo'lajak musiqa mutaxassislarini Buxoro musiqa namoyandalari ijodiga aksiologik yondashish orqali umumiy ta'lim maktablarida o'tiladigan "Musiqa madaniyati" darslarining sifati va samaradorligiga ham erishishlari mumkin.

Ayni paytda bo'lajak musiqa o'qituvchilari – bakalavrlarni Buxoro musiqa namoyandalari ijodi misolida tarbiyalab borish ushbu qadriyatlar va boy musiqiy bilim manbalaridan chuqur va atroflicha foydalanish ularning musiqiy bilimlarining boyishi va mahoratlarining ortishida muhim omil hisoblanadi.

Musiqiy merosga ijodkorlik bilan yondashish, uning boy an'alarini davom ettirish, yanada yangilash va imkon boricha uning boy an'alarini davom ettirish, kamchiliklarini to'ldirib, boyitib, kelajak avlodga yetkazish muhim vazifadir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Buxoro boy musiqa madaniyati tarixiga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Buxoroda tug'ilib, umrining salmoqli qismini shu hududda o'tkazgan va ijodiy faoliyat olib borgan mashhur musiqa namoyandalari ko'pchilikni tashkil etadi. Ular ijodini alohida o'rganish va faoliyatiga aksiologik yondashish yosh avlod tarbiyasida ham salmoqli o'rin tutadi. Abu Ali ibn Sinoning musiqa haqidagi risolalari, Buxoroda faoliyat ko'rsatgan mashhur hofiz, shoir Abu Abdullo Ro'dakiy, Abdurahmon Jomiy, buyuk "Shashmaqom" namoyandalari, mashhur hofiz va sozandalar Ota Jalol Nosirov va boshqalar ijodini sinchiklab o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'tgan asrda sobiq Sho'ro davrida yashab ijod etgan musiqa san'ati va madaniyatining betakror namoyandalari Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutal Burxonov, Fayzulla Karomatov, Botir Umidjonov va ularning izdoshlari Mustafo Bafoyev, Rustam Abdullayev, mohir cholg'uchilar tanburchi Toshpo'latov, Moshe Boboxonov, Sulaymon Toxanov va boshqalar ijodiga aksiologik yondashuv Buxoro hududi san'at darg'alarining o'zbek musiqasi rivojiga qo'shgan hissasini yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi. Bu ijodkorlarning musiqiy merosi o'z hududi, o'z Vatani, o'z xalqi uchun qanday xizmat qilish kerakligini namoyish etuvchi muhim vositadir.

Shu o'rinda musiqiy qadriyatlarning pedagogik vosita ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Cholg'u ijrochiligi, hofizlik san'atini namoyish etish ham yosh avlodni tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib, uning pedagogik jihatlariga – ta'lim va tarbiyadagi ahamiyatiga alohida e'tiborni qaratish muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar, jumladan, estetik qadriyatlar ham xalqimiz musiqiy faoliyatining barcha jihatlarini musiqa ijodkorligi, cholg'u ijrochiligi, kuylash madaniyatiga xos barcha go'zalliklarni o'zida jamul-jam etadi.

Musiqiy qadriyatlar Buxoro xalqining turmush tarzi, til madaniyati, turli an'analari, urf-odatlarini, mahalliy xalqqa xos xususiyatlari bilan milliy qadriyatlar hisoblanadi. Unda o'zbek xalqining shu hududga xos bo'lgan musiqiy bezaklari, qochirimlari, cholg'u ijrosi hofizlik an'analari, kuylash uslublari va o'ziga xos ijro maktabini o'zida mujassam etadi.

Mazkur qadriyatlar musiqiy-nazariy bilimlar, og'zaki ijro an'analari, "Shashmaqom"dagi ustoz-shogirdlik an'analari, cholg'u turlari, ijrochilik mahoratlari, bastakorlik maktablari, jahon andazasidagi turli janrlardan tarkib topgan asarlarni bastalay olinishi va ularni mahorat bilan ijro eta olinishi bilan dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan holda, umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida milliy madaniyatimizni yanada boyitib boradi.

#### Adabiyotlar

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004.
2. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
3. Matyoqubov O. Maqomat. – T.: Musiqa, 2004.